

СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

7 ЖИЛД, 5 СОН

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА

ТОМ 7, НОМЕР 5

INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

VOLUME 7, ISSUE 5



СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА | INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

№5 (2024) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9297-2024-5>

Бош муҳаррир:
Тўхтасинов Илҳом
п.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Бош муҳаррир ўринбосари:

Главный редактор:
Тухтасинов Илхом
д.п.н., профессор (Узбекистан)

Заместитель главного редактора:

Editor in Chief:
Tuhtasinov Ilhom
DSc. Professor (Uzbekistan)

Deputy Chief Editor

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ

Назаров Бахтиёр
академик. (Ўзбекистон)

Якуб Умарўғли
ф.ф.д., профессор (Туркия)

Алмаз Улви Биннатова
ф.ф.д., профессор (Озарбайжон)

Бокиева Гуландом
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Миннуллин Ким
ф.ф.д., профессор (Татаристон)

Махмудов Низомиддин
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Керимов Исмаил
ф.ф.д., профессор (Россия)

Жўраев Маматкул
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Куренов Рахиммаед
к.ф.н. (Туркменистон)

Кристофер Жеймс Форт
Мичиган университети (АҚШ)

Умархўжаев Мухтор
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Мирзаев Ибодулло
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Болтабоев Ҳамидулла
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Дўстмухаммедов Хуршид
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Лиходзиевский А.С.
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Сиддиқова Ирода
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Шиукашвили Тамар
ф.ф.д. (Грузия)

Туробов Бекпулат
масбул котиб, PhD, доцент
(Ўзбекистон)

РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ

Назаров Бахтиёр
академик. (Узбекистан)

Якуб Умар оғли
д.ф.н., профессор (Туркия)

Алмаз Улви Биннатова
д.ф.н., профессор (Азербайджан)

Бакиева Гуландом
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Миннуллин Ким
д.ф.н., профессор (Татарстан)

Махмудов Низомиддин
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Керимов Исмаил
д.ф.н., профессор (Россия)

Джураев Маматкул
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Куренов Рахыммаед
к.ф.н. (Туркменистан)

Кристофер Джеймс Форт
Университет Мичигана (США)

Умархаджаев Мухтар
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Мирзаев Ибодулло
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Балтабоев Ҳамидулла
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Дустмухаммедов Хуршид
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Лиходзиевский А.С.
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Сиддикова Ирода
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Шиукашвили Тамар
д.ф.н. (Грузия)

Туробов Бекпулат
отв. секретарь, PhD, доцент
(Узбекистан)

EDITORIAL BOARD

Bakhtiyor Nazarov
academician. (Uzbekistan)

Yakub Umarogli
Doc. of philol. scien., prof. (Turkey)

Almaz Ulvi Binnatova
Doc. of philol. scien., prof. (Azerbaijan)

Bakieva Gulandom
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Minnulin Kim
Doc. of philol. scien., prof. (Tatarstan)

Mahmudov Nizomiddin
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Kerimov Ismail
Doc. of philol. scien., prof. (Russia)

Juraev Mamatkul
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Kurenov Rakhimmamed
Ph.D. Ass. Prof. (Turkmenistan)

Christopher James Fort
University of Michigan (USA)

Umarkhodjaev Mukhtar
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Mirzaev Ibodulla
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Boltaboev Hamidulla
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Dustmuhammedov Khurshid
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Lixodzievsky A.S.
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Siddiqova Iroda
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Shiukashvili Tamar
Doc. of philol. scien. (Georgia)

Turobov Bekpulat
PhD Ass. prof. Senior Secretary
(Uzbekistan)

PageMaker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000


1. Urazaliyeva Mavluda Yangiboyevna O‘ZBEK TILI AUDIOKORPUSI UCHUN PRAATNING FUNKSIONAL IMKONIYATLARI.....	5
2. Kuchkorov Khoshimjon Khasanzoda SOME CONSIDERATIONS ON THE UZBEK TRANSLATION OF THE WORK OF THE ALCHEMIST (ON THE EXAMPLE OF THE TRANSLATION OF AKHMAD OTABOY).....	11
3. Ergashev Mirsaid Baxtiyor o‘g‘li SEMANTIC FEATURES OF THE CONCEPT OF “LOVE-MUHABBAT” IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES.....	18
4. Eshboltayev Bobur Jo‘rayevich BOLALAR REKLAMA MATNLARINING PSIXOLINGVISTIK XUSUSIYATLARI.....	23
5. Qurbonova E‘zoza HUQUQSHUNOSLIKKA DOIR TERMINLARNING SEMANTIK XUSUSIYATLARI VA ULARDA POLIFUNKSIONALLIK MASALASI.....	27
6. Abduxamidova Dilafruz Abduxabirovna TILNING TAFAKKURGA TAFAKKURNING TILGA TA‘SIRI.....	33
7. Usmonova Zarina Habibovna THE UNIQUE ASPECTS OF TRANSLATION IN ENGLISH SCIENCE FICTION.....	38
8. Valieva Noiba Abbasxonovna TIL VA JAMIYAT O‘RTASIDAGI UZVIY BOG‘LIQLIK XX ASR DOLZARB MASALASI SIFATIDA.....	43
9. Dilorom Ikramovna Hakimova “NAFS” KONSEPTINING LINGVOPRAGMATIK TAVSIFI VA TASNIFI.....	49
10. Xasanova Shaxzoda FE‘L FRAZEOLOGIZMLAR TARJIMASI.....	54
11. Ойбек Бектемирович Абдимўминов БМТ ИСЛОҲОТЛАРИ: СИЁСИЙ ҚАРАШЛАР, НАЗАРИЙ ЁНДАШУВЛАР ВА АМАЛИЙ ТАШАББУСЛАР.....	60
12. Хасанова Феруза Мирзабековна, Аҳмедов Нодирбек Алиевич ОСОБЕННОСТИ ПЕРЕВОДА С КИТАЙСКОГО ЯЗЫКА.....	67
13. Усманова Салиха Юлдашевна, Мирзаева Шахло Ризаевна ДИФФЕРЕНЦИАЦИЯ СОСТАВА И СТРОЕНИЯ РУССКОГО И УЗБЕКСКОГО СЛОВА ПРИ ИЗУЧЕНИИ РУССКОГО ЯЗЫКА СТУДЕНТАМИ НАЦИОНАЛЬНЫХ ГРУПП.....	74
14. Saidvaliyev Farrukh Saidakramovich, Subkhanova Aziza Khabibulla kizi ROLE OF ANTIDEPRESSANTS IN REDUCING THE FREQUENCY AND DURATION OF MIGRAIN HEADACHES.....	80
15. Ишанкулова Нилуфар Ташкентовна HEMIS TILI ФЕЪЛЛАРИНИНГ АКЦИОНАЛ ТАСНИФИ.....	85
16. Jabborova Dilafruz Ismatullo kizi USING DIGITAL TECHNOLOGIES TO ENHANCE FINANCE STUDENTS’ WRITING COMPETENCE.....	91
17. Jo‘raqulova Mushtariy O‘ZBEK TILI PARALLEL KORPUSINING LINGVISTIK TA‘MINOTI.....	94
18. Maftuna Kamarova Umar qizi KOREYS TILI O‘QITUVCHILARINING O‘QISH KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA FLIPPED LEARNING TEXNOLOGIYASINING O‘RNI.....	99

19. Shoxida Ulugova Shoxruxovna LISONIY OBRAZ YARATISHDA DISKURSNING KOGNITIV-SEMANTIK VAZIFASI.....	104
20. Рашидова Камила Ахмаджонова ЗАРОЖДЕНИЕ СОВРЕМЕННОЙ ДЕТСКОЙ ЛИТЕРАТУРЫ ЯПОНИИ.....	109
21. Тошбекова Дилором Исмоиловна, Халимова Нодири Бахронкуловна РУССКАЯ ФРАЗЕОЛОГИЯ И КУЛЬТУРНЫЙ КОНТЕКСТ: АНАЛИЗ УСТОЙЧИВЫХ ВЫРАЖЕНИЙ, ПОСЛОВИЦ И ПОГОВОРОК, ИХ ПРОИСХОЖДЕНИЕ, РАЗВИТИЕ И РОЛЬ В СОВРЕМЕННОЙ КОММУНИКАЦИИ.....	116
22. Bakhronova Dilrabo Keldiyorovna, Umirova Dilnoza PRAGMATIC FEATURES OF PHRASES IN IAN MCEWAN’S NOVELS.....	120
23. Ikramova Kamola Shuhratovna THE IMPORTANCE OF MYTHOLOGIES, ARCHETYPES, AND MYTHIC UNITS IN THE CREATION OF A FEMALE IMAGE IN NOVELS “PRIDE AND PREJUDICE” BY JANE AUSTEN AND “O’TGAN KUNLAR” BY ABDULLAH QODIRIY.....	124
24. Buranova Madina Uktamovna, Ruziyeva Umida Abryukul kizi SEMANTIC AND PRAGMATIC ANALYSIS OF ANTHROPOCENTRIC IDIOMS IN CONTEMPORARY ENGLISH LITERATURE.....	129
25. Ergashova Baxora Sayfillo qizi ITALYAN XALQ ERTAKLARINING TARIXIY TARAQQIYOTI.....	136
26. Muhtarova Nigina THE USE OF AUTHENTIC VIDEO MATERIALS TO IMPROVE LANGUAGE LEARNING THROUGH COMMUNICATIVE TEACHING.....	141
27. Bayonkhanova Iroda Furkatovna KOREYS TILINI O’RGANISHDA MAQOLLARDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI.....	151
28. Ergashev Mirsaid Baxtiyor o’g’li SEMANTIC FEATURES OF THE CONCEPT OF “LOVE-MUHABBAT” IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES.....	157
29. Рашидова Камила Ахмаджонова ЗАРОЖДЕНИЕ СОВРЕМЕННОЙ ДЕТСКОЙ ЛИТЕРАТУРЫ ЯПОНИИ.....	162
30. Ikromova Nigina Oybekovna THE EFFECT OF COGNITIVE LOAD ON THE TRANSLATOR: THE ROLE OF PSYCHOLINGUISTIC PROCESSES IN TEXT TRANSLATION.....	169
31. Эргашева Дилноза Тохировна АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ПЕРЕВОДА.....	175
32. Nasiba Azizova THE CONCEPT OF LINGUISTIC PERSONALITY IN THE WORKS OF ALISHER NAVOI.....	180



Dilorom Ikramovna XAKIMOVA,
Navoiy viloyati O'qituvchilarni qayta tayyorlash
va ularni malakasini oshirish markazi uslubchisi

“NAFS” KONSEPTINING LINGVOPRAGMATIK TAVSIFI VA TASNIFI

 <https://doi.org/10.5281/zenodo.14799700>

ANNOTATSIYA

Hozirgi vaqtda kognitologiya hamda lingvokulturologiyada konsept tuzilishini aniqlashga bir necha yondashuvlar ishlab chiqilgan. Ularning barchasi tarkibiy birlik sifatida ma'lum bir qoidaga asoslanadi. Konseptual tizim turli darajadagi murakkablik va mavhumlikning semantik tuzilmalari bilan ifodalanadi va tilning leksik tizimida o'zining ko'rinishlari mavjud. Lingvistik konseptning ko'p qatlami uning mavjudligida namoyon bo'ladi. Ushbu maqolada jahon, rus, o'zbek tilshunosliklarida konsept, unga berilgan ta'riflar, shakllanishi, shuningdek, “nafs” konseptining nazariy masalalari badiiy matnlardan keltirilgan misollar, fikr-mulohazalar asosida yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: lingvopragmatika, lingvokulturologiya, kognitiv tilshunoslik, psixolingvistika, neyrolingvistika, etnolingvistika, diskursiv tahlil, konsept, “nafs” konsepti, konseptosfera.

АННОТАЦИЯ

В настоящее время в когнитивистике, а также в лингвокультурологии разработано несколько подходов к определению структуры понятия. Все они основаны на определенном правиле как структурной единице. Понятийная система представлена семантическими структурами разной степени сложности и абстракции и имеет свои проявления в лексической системе языка. Многослойность языкового понятия проявляется в его существовании. В данной статье рассмотрены концепт в мировом, русском, узбекском языкознании, его определения, формирование, а также теоретические вопросы концепции “нафс” на основе примеров, отзывов из художественных текстов.

Ключевые слова: лингвопрагматика, лингвокультурология, когнитивная лингвистика, психоллингвистика, нейролингвистика, этнолингвистика, дискурсивный анализ, концепт, концепция “похоти”, концептосфера.

ANNOTATION

Currently, several approaches to defining the structure of a concept have been developed in cognitive science, as well as in cultural linguistics. All of them are based on a certain rule as a structural unit. The conceptual system is represented by semantic structures of varying degrees of complexity and abstraction and has its manifestations in the lexical system of the language. The multilayered nature of a linguistic concept is manifested in its existence. This article examines the concept in world, Russian, and Uzbek linguistics, its definitions, formation, and theoretical issues of the concept of “nafs” based on examples and reviews from literary texts.

Keywords: linguopragmatics, linguoculturology, cognitive linguistics, psycholinguistics, neuro-linguistics, ethnolinguistics, discursive analysis, concept, concept of “lust”, conceptual sphere.

Zamonaviy tilshunoslikda amaliy izlanishlar olib borish asosiy masalalardan biriga aylandi. Dunyo tilshunosligining lingvopragmatika, lingvokulturologiya, kognitiv tilshunoslik, psixolingvistika, neyrolingvistika, etnolingvistika, diskursiv tahlil kabi yo‘nalishlarida shaxs omili tadqiqot obyektining markazini tashkil etadi. Mazkur sohalarning yuzaga kelishi fanda insonni yanada chuqurroq o‘rganish hamda lisoniy faoliyatni shaxs omili bilan uzviylikda yoritish harakatlari bilan bog‘liqdir.

Har doim til etnik guruhning eng muhim xarakterologik identifikatsiyalaridan biridir. Pifagor ta‘biri bilan aytganda, “har qanday millatning axloqini bilish uchun uning tilini o‘rganish” zarurdir. Fabius Kvintilian esa quyidagilarni qayd etadi: “Tilning madaniyat bilan aloqasi, uning vositasi va ifodasidir”.

Til–jamiyat–madaniyat–shaxs–dunyo singari makrolingvistik muammolar xususida XIX asrning birinchi yarmi hamda XX asr boshlarida tilshunos olimlar V.Gumboldt, G.Shtayntal, Y.Sepir, A.Potebnya, D.Ovsyaniko-Kulikovskiy o‘z asarlarida ilk bor ma‘lumot berishgan. Shuningdek, tilshunoslar F.de Sossyur, V.A.Bogorodiskiy, I.A.Boduen de Kurtene, K.Buxler, Y.Benvenist, Y.M.Vereshchaginlar ham murojaat qildilar.

Biroq, XX asrning birinchi yarmida Vorkachev til va madaniyat o‘rtasidagi munosabatlar masalasini yirik planga ko‘tarib, “millati va o‘zi uchun tilni o‘rganish – bu cheklangan strukturalizm yutuqlari”, – deya qayd etadi. Ammo o‘tgan asrning o‘rtalaridan boshlab V.Postovalova tomonidan gumanitar bilimlarning universal ilmiy paradigmasidagi o‘zgarishlarning bir qismi sifatida dominant ilmiy, tizim-tarkibiy, statik paradigma teoantropokosmik paradigma bilan almashtirildi. Tadqiqotchi dunyoqarashning asosiy xususiyatini uning kosmologik yo‘nalishi, ya‘ni u dunyoning global obrazi sifatida talqin etib, bir vaqtda antropomorfizm, ya‘ni dunyoni anglashning o‘ziga xos usuli xususiyatlarini tashkil etadi, – degan xulosaga keladi. Dunyoning bu qiyofasi muqarrar ravishda muallifning dunyoqarashi va dunyoni anglash xususiyatlariga bog‘liq. Ammo S.G.Vorkachev talqinicha, inson yana “hamma narsaning o‘lchovi”ga aylanadi, tadqiqot diqqat markazida tabiiy ravishda allaqachon o‘rganilgan markazdan muammoli periferiyaga o‘tadi va ilmiy bilim sohalari: etnopsixologiya, psixolingvistika, kognitiv psixologiya, sotsiolingvistika, kognitiv tilshunoslik, etnolingvistika yuzaga keladi”. Emil Benvenist tomonidan rejalashtirilgan “til, madaniyat, inson shaxsiyati” uchburchagini qayta ta‘kidlash natijasida lingvokulturologiyadan ajralib turadigan lingvokulturologik konseptologiya (inson shaxsiyati–ong–konsept) uchun o‘ziga xos nasl edi.

Lingvokulturologiyaning kategorik apparati asoslari lingvistik shaxs, konsepsiya, dunyoning milliy, lingvistik, konseptual manzarasi kabi asosiy tushunchalardan iborat. Ularning epistemologik shakllanishi hali tugallanmagan: ko‘plab talqinlar, terminologik ma‘nolarning semantikasi va hodisalarni tahlil qilish burchaklari buning dalilidir.

Konsept tushunchasi doimiy qayta talqin qilish va ilmiy qayta talqin etishga eng moyil sanaladi. Bundan tashqari, ushbu atama bir nechta bilim sohalari tilida faol qo‘llaniladi: madaniyatshunoslik, falsafa, madaniyatlararo aloqa, mantiq, kognitiv tilshunoslik va konseptologiya. Uning terminologik “raqobatchilari”, sinonimlari ham bor, garchi ularning barchasi sinonimlar bo‘lishi kerak bo‘lsa-da, konsept jihatidan mos kelmaydi degan fikrlarni beradi: lingvokulturema (V.Vorobyov), logoeistema (E.M.Vereshchagin va V.G.Kostomarov), ijtimoiy-madaniy stereotiplar (I.A.Sternin), aqliy vakillik (V.V.Kolesov) falsafiy va metaforik belgilashlarni keltiradi.

V.A.Maslova konseptning bir nechta ta‘riflarini beradi: konsept – bu xizmat qiladigan atama, ongimizning aqliy yoki aqliy resurslari birliklarini tushuntirish va insonning bilim, tajribasini aks ettiruvchi axborot tuzilmasi; konsept – bu xotiraning operatsion mazmun birligi, aqliy leksikon, konseptual miyaning tizimi va tili, inson ruhiyatida aks etgan dunyoning butun surati; konsept – bu ifoda jihatidan taqdim etiladigan, madaniy belgilangan leksikosemantik paradigmani tashkil etuvchi bir qator lingvistik realizatsiyalar bilan, lingvistik ifodaga ega bo‘lgan jamoaviy bilim birligi va etnomadaniy o‘ziga xosliklar majmuyidir.

Konsept ba'zi ideal, mavhum birliklardir. U inson fikrlash jarayoni, inson faoliyati va atrofdaagi dunyoni bilish bilan bog'liq holda amalga oshiriladi. U olingan tarkibni aks ettiradigan bilim. Odamlar o'rtasidagi muloqot jarayoni va axborot almashinuvidir.

O'zbek tilshunosligida tahlil va talqin vositasi hamda termin sifatida "konsept" atamasi 1990-yillardan boshlab qo'llanila boshlagan. Bugungi kunga qadar ko'plab olimlar bu borada o'z tadqiqotlarini olib borgan bo'lsa-da, yakdil bir qaror sifatida uning aniq ta'rifini berishgan emas. Konsept zamonaviy tilshunoslikning yadrosi sifatida takomillashib borayotgan tadqiqot sohasidir. U bevosita inson ongi, idroki bilan bog'liq bo'lgan jarayon bo'lib, oliy tafakkur mahsuli sifatida namoyon bo'ladi. Bu tushunchaga juda ko'plab olimlar o'zlarining ta'riflarini berishgan. Birmuncha yangi hisoblangan bu yo'nalish bo'yicha o'zbek tilshunosligida ham tadqiqot ishlari ko'lami ortmoqda. Shu o'rinda Sh.Safarov, N.Mahmudov, T. Mardiyev, E.Mamatov, M.Rahmatova, O'.Yusupov, G.Hoshimov kabi olimlarning tadqiqotlarini alohida ta'kidlash joiz.

"Konsept" tushunchasi mavhum hodisa bo'lganligi sababli uni aynan bir birlikning mavjud bo'lmagan, moddiy ko'rinish aks etmagan, balki ongimiz, tafakkurimiz orqali hosil qiladigan ma'nolar jamlanmasi sifatida baholaymiz. Bu borada M.Raxmatova: "Inson faoliyati davomida to'plangan bilim uning ongida aks etar ekan, bunday mental reprezentatsiya milliy madaniy faoliyatning aks etishidir", - degan fikrni bayon etadi [15, 13]. Biroq "konsept" atamasini "ma'no", "tushuncha" kabi hodisalar bilan bir qatorga qo'yish mumkinligi, shu bilan birgalikda ular aynan bir xil emasligi, o'zaro umumiy va farqli tomonlarini ajratib olish kerakligini unutmashimiz kerak. Bu haqida tilshunos olim Sh.Safarov bu haqda shunday fikrlarni bildiradi: "Ushbu savollarga hozircha to'liq javob topilganicha yo'q va uning topilishi ham gumonli. Gumon tug'ilishining, albatta, sabablari bor. Dastavval, "konsept" tushunchasining o'ta mavhum hodisa ekanligini, uning zamiridagi "mental struktura" hech qanday moddiy ko'rinishga ega bo'lmasdan, balki aqliy idrok jarayonida hosil bo'ladigan, tasavvurdagi tuzilma ekanligini unutmashlik lozim.

O'zbek tilshunosligida T.Mardiyev o'zining o'ttizga yaqin mualliflik ishlarida aynan konsept tushunchasiga berilgan ta'riflar, xulosalar, nazariyalar haqida ham to'xtalib o'tadi. Olimning fikricha: "Konseptlar, odatda, inson turmush tarzi bilan bog'liq ma'lum tushunchalarni maxsus qoliplarga solish, lisoniy va madaniy mavjudligini belgilashga qaratiladi. Ma'lum bir konsept har bir lingvomadaniyatda o'ziga xos shakllanishga ega sanaladi. Konseptlar, o'z navbatida, so'z ma'nolariga nisbatan keng talqin etiladigan, murakkab tipologik qurilmaga ega." [16, 36-44]

"Konsept"ning mohiyatini tushunish va tushuntirishga bo'lgan har qanday urinish real matnlarda monoton takrorlanishning oldini olish uchun ko'pincha sinonim sifatida ishlatiladigan, bir-biri bilan almashtiriladigan bir qator o'zaro bog'liq tushuncha va atamalar mavjudligini anglashga olib keladi.

O'zbek tilining izohli lug'atida "nafs" arabcha so'z bo'lib, qalb, ko'ngil; inson; maqsad, intilish; g'urur, mag'rurlik kabi ma'nolarni anglatadi. Nafs – yeyish-ichish va mol-dunyoga bo'lgan ehtiros, shahvoniy hirs.

"Nafs" konsepti o'zida poklik, dunyoga ruju qo'ymaslik, iymonli bo'lish, hoyu havasga berilmaslik, gunohdan tiyilishni targ'ib qiluvchi tushunchalardan biridir. Nafs insonning moddiy o'zligi, "men"idir. Nafs izidan ergashadigan inson uning quliga aylanadi. Badnafslilik yomon illatlardan biri sanaladi. Bunga xalq og'zaki ijodidan ko'plab maqollarni misol keltirishimiz mumkin. "Mani nafsim balodur, yonar o'tga solodur", "Nafsning yomoni-baloning koni", "Mani nafsim balodur, O'tdan cho'qqa solodur" kabi maqollar mavjud. O'z nafsini tiya olmaganlar tilidan aytilgan bunday maqollar, aslida, xalq tilidan aytilgan kinoyali achchiq haqiqatdir. Donishmandlar inson nafsini bir necha darajaga bo'lishadi. Shulardan biri "Nafsul-ammora" deyiladi. Nafsul-ammora insonning xilqatidagi nafsdur. Bu nafs yeyish, ichish, uxlashdan iboratdir, Ammo insonning bu nafsiy holati har xil yomonliklarga undaydi. Yuqoridagi maqollardagi nafs nafsul-ammoradir. Nafsul-ammora insonni nafsoniy ishlarga yo'llaydigan nafsdur.

Alisher Navoiyning "Navodir ush-shabob"deb nomlangan devonining aynan nafsul-ammora haqida fikr bildirilgan:

531-g'azalida

*Malak taslimi shayton kibridekdur buki, aql o'zin
Qilib ma'muri amr istar amorat nafsi ammora.*

Dinimizda nafsni poklash, nafsni yengish, nafs bilan kurashish o‘ta zarur va qiyin ishlardan sanaladi. Nafs tarbiyasi xalq og‘zaki ijodida ham, Qur’oni Karimda ham, hadislarda ham eng hassos mavzulardan biri bo‘lib, ko‘plab olimlar, jumladan, Imom Buxoriy, Forobiy, Beruniy va Navoiy asarlarida nafs borasida ibratli fikrlar keltirilgan. Kishi nafsini jilovlash uchun nafsni tarbiya qilgan zotlarga yaqin yurishi va ilm o‘rganib, unga amal qilmog‘i zarur. Nafsini tergap turgan kishining Qiyomat kunidagi hisob-kitobi yengil bo‘lishi haqida hazrati Umar ibn Xattob raziyallohu anhu shunday deganlar: *حَاسِبُوا أَنْفُسَكُمْ قَبْلَ أَنْ تُحَاسَبُوا، وَتَزَيِّنُوا لِلْعَرَضِ الْأَكْبَرِ وَإِنَّمَا يَخْفُ الْحِسَابُ يَوْمَ الْقِيَامَةِ عَلَى مَنْ حَاسَبَ نَفْسَهُ فِي الدُّنْيَا*

(رواه الامام الترمذي)

Ya’ni: “Hisobga tortilishingizdan avval nafsingizni hisob-kitob qiling va Qiyomat kuniga tayyorgarlik ko‘ring. Qiyomat kunidagi hisob faqat dunyoda o‘zini tergap turgan kishilargagina yengil bo‘ladi” (Imom Termiziy rivoyatlari).

Nafaqat Sharq adabiyotida, balki G‘arb adabiyotida ham nafs qoralanadi. Masalan, mashhur italiyalik shoir Dante Aligyeri “Ilohiy komediya” dostonida badnafslilik, yeb to‘ymas mechkaylarni do‘zaxga joylaydi. Rus shoiri A.S.Pushkin esa “Oltin baliqcha” ertagida badnafslilik qanday oqibatlariga olib kelishini tasvirlaydi. Unda nafsini tiya olmagan ochqo‘z kampir badnafslilik tufayli oxir-oqibat yorilgan tog‘orasi bilan qoladi. Masalan, sahih hadislarda ta’kidlanganidek, “Hech kim dinni Islomni ochko‘zlik buzganchalik buza olmaydi” (717), “Kishidagi sifatlarning eng yomoni o‘ta ochko‘zlik bilan qattiq qo‘rqoqlikdir” (508), “Podaga qo‘yib yuborilgan ikkita och bo‘rining zarari kishining molga va obro‘ga bo‘lgan hirsini uning diniga keltirgan zarariga teng emasdir” (703). Sharq mutafakkirlarining fikricha, badnafslilik amaldorlar jamiyatni izdan chiqarib, o‘zini ham, saltanatni halokatga mahkum etadi. Sahl ibn Abdulloh Tustariy (vaf.896) tasavvuf ta’limotida “nafs” masalasiga ilk bor alohida ahamiyat qaratgan so‘fiylardan biridir [4:54]. Tasavvuf namoyandalari talqiniga ko‘ra, nafs bu inson borlig‘ining muhim qismi hisoblanadi va shu bois ham so‘fiylar nazdida barcha yomonliklar tamali, gunohlarning manbai sifatida qaraladi. Tasavvuf vakillarining nafsga oid qarashlari uchun asos Payg‘ambarimizning “Nafsini tanigan, Rabbini tanir”, degan hadislari bo‘lgan [6:44]. G‘azzoliyga ko‘ra, nafs – baloning boshi, razolat manbayidir [1:15]. Najmiddin Kubroga ko‘ra, “nafs bu – o‘lmaydigan ilondir” [5:31], Mahmud Asad Jo‘shon e’tiroficha, “nafs insonning moddiy o‘zligi “men”ligidir

Xullas, nafs bilan bog‘liq A.Navoiy g‘azallarida sayr-u suluk uchun asos qilib olingan me’yorlar bilan birga murid va soliklarning tarbiyasi hamda ularning maqsad manziliga yetishish xususida keng bahs yuritiladi.

Adabiyotlar

1. Степанов Ю.С. Константы. Словарь русской культуры. М., 1997. С 5
2. <https://www.online-translator.com/contexts/english-russian/pathos>
3. Clark, H., & Marshall, C. (1981). Definite Reference and Mutual Knowledge. Elements of Discourse Understanding. Cambridge University Press, pp. 10-63. [in English]
4. Popova, Z.D., Sternin, I.A. (2007). Cognitive Linguistics. Moscow: AST-Vosok-Zapad, 314 p. [in Russian]
5. Croft, W., & Alan, D. (2007). Cognitive Linguistics. Cambridge: CUP. 365p. [in English]
6. Journal of History Culture and Art Research (ISSN: 2147-0626) Concept_vs_Notion_and_Lexical_Meaning
7. Babushkin, A.P. (ed.) (1996). Types of concepts in language lexical-phraseological semantics. Voronezh: Publishing house of Voronezh State University, 104 p. [in Russian]
8. Boldyrev. N.N. (2001). Concept and word meaning. In: Sternin, I.A. (ed.), Methodological problems of cognitive linguistics: a scientific publication, (pp.25-36). Voronezh: VGU. [in Russian]
9. 4.Кубрякова Е.С. Концепт / Е.С. Кубрякова, В.З. Демьянков, Ю.Г. Панкрац, Л.Г. Лузина // Краткий словарь когнитивных терминов. – М., 1996.С.90-92.
12. .Соломоник А. Семиотика и лингвистика. - М.: Молодая гвардия, 1995. С.246.
10. Колесов В. В. Язык и ментальность. - СПб, 2004.С.19-20

11. Fillmore, Ch., & Atkins, B.T. (1992). Toward a Frame-Based Lexicon: The Semantics of RISK and its Neighbors. In: Adrienne Lehrer and Eva F. Kittay (eds.), *Frames, Fields and Contrasts*, (pp.75-102). Hillsdale N.J.: Lawrence Erlbaum. [in English]

СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

7 ЖИЛД, 5 СОН

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА

ТОМ 7, НОМЕР 5

INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

VOLUME 7, ISSUE 5

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000